

Sana: 12.02.2013

Sinf: 9

Mavzu: Asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlar.

Dars maqsadi:

Mamlakat iqtisodiyotining asosiy ko`rsatkichlarini bilish va ularni farqlay olish;
Sodda misollarda YAIM, YAMM, SIM, SMM va MD ni hisoblay olish;
Asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlarning mamlakat iqtisodiyotidagi o`rnini bilish;

Darsning shiori:

Vatanimiz iqtisodiyoti va xalqimiz farovonligini yuksaltirishda o`z hissamizni
qo`shaylik.

Dars tipi: Yangi bilim beruvchi

Dars uslubi: "Domino", "Munozara", "Masalalar yechish".

Dars jihozi:

1 9-sinf darsligi

2 I.A. Karimov ma`ruzalari: Xalq so`zi 12 noyabr 2010 y Buxoronoma 27 yanvar
2011y

3 I.A. Karimov "Jahon moliyaviy inqirozi ..." asari

4 Ekran, protsessor, disk "Asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichi"

5 Rangli banner mavzuga oid

6 Tarqatma testlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

a) davomatni aniqlash;

b) o`quvchilarni guruhlariga ajratish

II. O`tgan mavzu so`rovi:

O`tgan mavzu "Aksiz va qo`shilgan qiymat solig`i" mavzusi "Domino" uslubida
mustahkamlanadi:

"Domino" o`yinini o`tkazish uchun o`quvchilarga kartochkalar tarqatiladi va
javoblar tinglanadi ("Domino" kartochkalari dars mazmunnomasiga ilova qilinadi.)

Masalan,

S: Egri soliqqa qanday soliqlar misol bo`ladi?

J: Aksiz va QQS

S: Xizmatlardan qanday soliq undirilmaydi?

J: Aksiz

S: Qanday soliq tovarli soliqqa misol bo`ladi?

J: QQS

O`qituvchi: Aziz o`quvchilar! Biz fevral oyida qanday bayramlarni nishonladik?

O`quvchi: Biz shu oyda ulug` bobokalonlarimiz Alisher Navoiyning 572 yilliklari
hamda Boburning 530 yilligini keng nishonladik.

Ulug` bobokalonimizning boy ijodiy meroslari zamonlar o`tib ham o`z
ahamiyatini yo`qotmagan.

Mashhur Odami ersang demagil odami

Satrlari: Onikim yo`q xalq g`amidin g`ani.

O`qituvchi: O`quvchilar xalq g`amida yongan adibimiz hamisha ular uchun kutubxona , ko`prik , shifoxonalar qurdirgan. Davlatimiz tomonidan shoirga katta e`tibor qaratilgan.

O`quvchi: Shu o`rinda ta`kidlash lozimki prezidentimiz ham har bir nutqlarida xalq farovonligi, , turmush darajasi haqida ma`lumot beradilar. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da ham prezidentimiz xalq farovonligi haqida ko`p fikr bildirganlar.


O`qituvchi: To`gri o`quvchilar xalqning turmush darajasi mamlakat iqtisodiyotini o`lchaydi, bunday kattaliklarga YaIM, YaMM , MD, SIM kiradi. Bugun bizlar shu kattaliklarni mavzumizda ko`rib o`tamiz.

III. Yangi mavzu bayoni.

Darsda yoritilishi lozim bo`lgan asosiy tushuncha va atamalar.

- **Tugal mahsulotlar** - iste`molga tayyor va boshqa ishlov berilmaydigan tovar va xizmatlar.
- **Yalpi ichki mahsulot (YaIM)** – mamlakat hududida bir yil mobaynida ishlab chiqariladigan, tugal ko`rinishidagi tovar va xizmatlarning bozor narxlaridagi umumiy qiymati.
- **Yalpi milliy mahsulot (YaMM)** – yil mobaynida mamlakat fuqarolari tomonidan (yer yuzining qayerida bo`lishidan qat`iy nazar) yaratilgan jami tugal tovar va xizmatlarning bozor narxlaridagi umumiy qiymati.
- **Sof ichki mahsulot (SIM)** - yalpi ichki mahsulotdan amortizatsiya ajratmasining ayrilganiga teng.
- **Milliy daromad (MD)** – mamlakat aholisining bir yillik jami ish haqi, foiz, renta kabi daromadlari va barcha korxonalar foydasining yalpi miqdori.

Makroiqtisodiy ko`rsargichlar



Mavzumiz: Asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlar

Asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlar bularga kiradi. YaIM , YaMM , MD shu haqida o`qituvchi tomonidan slayd namoyish etiladi.

Slayddagi ma`lumotlarni ko`rgach o`quvchilar savollarga javob berishadi. Rasmlarga qarab YaIM , YaMMni ajratishadi.

Shundan so'ng o'quvchilarga oldindan tayyorlangan savol kartochkalari tarqatiladi(mavzuga oid) va 1 daqiqadan so'ng o'quvchilar savollarga javob qaytarishadi.

Savollar:

YAIM qanday ko'rsatkich, ma'lumot bering?

YAMM qanday ko'rsatkich, ma'lumot bering?

Tugal va oraliq mahsulotlarga misollar keltiring...

IV. Mustahkamlash:

Mavzuni mustahkamlash va o'quvchilarning dunyoqarashini o'stirish uchun masalalar yechish usulidan foydalanamiz.

Berilgan

YaMM-7669mln

I – 190 mln

E – 205mln

YaIM - ?

YaIM=YaMM-E+2

YaIm=7669-205+190=7654

Javob : Mamlakat YaIMi -7654 mln.

Masala o'qituvchi bilan birgalikda yechiladi. Shundan so'ng, o'quvchilarga mustaqil ish tariqasida uch jamoaga uchta quyidagi masalalar beriladi:

Masalalar

1.Bir mamlakatning YAMM miqdori 8320 mln. dollarni, chet ellik fuqarolarga to'langan daromadlar 210 mln. dollarni, boshqa davlatlarga qo'yilgan sarmoyadan tushgan daromadlar-340 mln. dollarni tashkil qildi. Bu mamlakatlarning YAIM miqdorini toping.

2.Bir mamlakatning YAMM miqdori 6870 mln. dollarni, chet ellik fuqarolarga to'langan daromadlar 305 mln. dollarni, boshqa davlatlarga qo'yilgan sarmoyadan tushgan daromadlar-450 mln. dollarni tashkil qildi. Bu mamlakatlarning YAIM miqdorini toping.

3.Bir mamlakatning YAMM miqdori 9260 mln. dollarni, chet ellik fuqarolarga to'langan daromadlar 380 mln. dollarni, boshqa davlatlarga qo'yilgan sarmoyadan tushgan daromadlar-602 mln. dollarni tashkil qildi. Bu mamlakatlarning YAIM miqdorini toping.

O'qituvchi: "O'quvchilar mana bugun siz bilan "Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar " degan mavzu bilan tanishib chiqdik, keeling, mavzuni birgalikda xulosalaylik."

O'quvchilar tomonidan mavzuga oid fikrlar bildiriladi hamda o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi.

Demak, YAIM mamlakat iqtisodiy salohiyatining asosiy o'lchovidir.U mamlakat iqtisodiyotining ahvolini aks ettiradi. MD SIMdan egri soliqlarni ayirish yo'li bilan topiladi...

V. Baholash:

Dars so'ngida g'olib guruh e'lon qilinib, faol o'quvchilar baholanadi.

VI. Vazifa: 2 – 3 savollarga yozma javob.

3-savolga javob:

Tugal mahsulotlar: Non, muzqaymoq, Lasetti mashinasi.

Oraliq mahsulotlar: Un, qaymoq, mashina g'ildiragi.